

KITOBXONLIK MADANIYATINI TARBIYALASHNING IJTIMOY PEDAGOGIK ZARURIYATI

Z.T.Qoraboeva

NamDU dotsenti

B.A.Abdurahmonova

NamDU, 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning dastlabki poydevori maktabgacha yoshdan boshlanishi, bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar xususida so'z yuritilgan.*

Kalit So'zlar:*kitobxonlik; kitobxonlik madaniyati;badiiy asarlar;kitobxonlik ko'nikmalari; dostonlar; ertaklar; rivoyatlar.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunday sa'y-harakatlar zamirida o'z fikri va dunyoqarashi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan bilimli va ma'naviyatli yoshlarni har jihatdan mukammal tarbiyalash vazifasi turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida kitobxonlik masalasi xususida gapirib: "...yoshlar va aholining keng qatlamlari o'rtasidagi kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga ham alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi[1], deb ta'kidlagan edi.

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Farmoyishda "... aholi, ayniqsa yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni o'rganish..., chop etilayotgan kitoblarni aholi o'rtasida ommaviy axborot vositalari, jumladan, "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali targ'ib qilish, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa,



maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish[2]" alohida vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishning dastlabki poydevori maktabgacha yoshdan boshlanishi zarur. Qadimdan o'zbek oilasida bolaga xalq og'zaki ijodiga tegishli dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, maqol va topishmoqlar vositasida tarbiya berib kelingan. O'zbek xalqining milliy xususiyatlari badiiy adabiyot bilan tanishtirish orqali singdirilgan.

Afsuski, keyingi paytlarda aholi o'rtasida kitobxonlik masalasida mavjud bo'lgan tarixiy tajriba yo'qolib, kitob o'rnini televidenie, telefon, kompyuter kabi texnik vositalar egallay boshladi. Ular esa ma'naviyatning yuksalishiga xizmat qilish o'rniga salbiy xususiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviyatning ajralmas qismi bo'lgan adabiyot, matbaatchilik va noshirlik faoliyatini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasida kitobning ta'sirchan kuchidan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash[3] maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash[3] maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tildi.

Mustaqillikdan so'ng o'quvchi-yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga falsafa, adabiyot, pedagogika va sotsiologiya fanlari doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Q.Husanboeva tomonidan "Adabiyot –ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili", Q.Husanboeva, M.Hazratqulov va G.Berdalievlar hamkorlikda "Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi" nomli ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratildi.

M.Nigmatova maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonli ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy–pedagogik asoslarini, N.Abdusamatova esa integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish masalasini yoritgan va



tadqiqot ishida ertakterapiyadan foydalanish metodikasi bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyondalarining asarlari bilan tanishtirish ham bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Tadqiqotchi Sh.Xujamberdieva ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodi va hayotini maktabgacha ta'limdan boshlab uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida o'rgatish masalasini yoritib bergan. Xususan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun albatta oilada va maktabgacha talim tashkilotlarda bolalarni kitobga mehr uyg'otish uni sevishga asrab –avaylashga o'rgatishimiz lozim. Bunda ayniqsa oilada bobo – buvisi, ota –onasining maktabgacha talim tashkilotlarida esa tarbiyachi va pedagoglarni o'rni kattadir.

Kitob bolaning aqliy ma'naviy estetik jihatdan boyishi uning kelajakda etuk inson bo'lib etishishiga uchun yordami kattadir. Kitob — axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli, badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot.

Kitobxonlik - bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritishga o'rgatishdir. Kitobxonlik o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir.

Qo'xna toshbitiklardan boshlangan kitob va kitobnavislik insoniyat tamaddunining eng buyuk, oliy kashfiyoti va mo'jizasi sifatida bani bashar tarixida dunyo turguncha quyoshday porlab, charaqlab turmog'i muqarrar. Eng Qadimgi turkiy toshbitiklardan tortib O'rxun- Enasoy yozuvlarigacha, Zarautsoy g'oridagi suratlaru Afraosiyob naqshlari, qadim Baqtriyaning ko'xna Kushon xatlaridan toki Oltoy tog'laridagi toshlarga bitilgan xarflarga qadar-butun bashariyat avlodiga xalqimiz tamaddunining nasl-nasabimiz ma'rifatimiz tomirlarining naqadar qadimiyligi bilan buyukligidan darak bermaydimi.

O'zbek xalqi qadimdan kitobxon xalq. Ming yillar davomida ota-bobolarimiz kitobni eng muqaddas boylik sanab, ko'z qorachig'iday avaylab-asrab avlodlardan-avlodlarga etkazib kelganlar. Hozirgi davrda ham minglab xonadonlarda kitobga bo'lgan samimiy hurmat iliq, bir oilaviy iqlimni yuzaga keltirgan.

Mutolaa bo'sh vaqtdan unumli foydalanishning eng keng tarqalgan turi bo'lib, barcha yoshdagi va barcha kasbdagi kishilarning eng sevimli mashg'ulotidir.



Badiiy asarlar mutolaasi ilmiy va ilmiy-ommabop asarlardan farq qiladi. Badiiy asar shaxsning ruhiy xissiyotlariga ta'sir etadi, unda o'z ona tiliga muxabbatni shakllantiradi, asar qahramonlariga qayg'udosh bo'lish, ularning kechinmalarini xic eta olish qobiliyatini vujudga keltiradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalayotgan tarbiyashilar va ota-onalar zarursharoitida kitob vositasida ta'sir ko'rsatishning quyidagi jihatlari e'tibor berishlari zarur:

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar. Nozik yumor, sanoq she'rlar, hazil-huzullarni o'zida jamlagan xalq asarlari dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm) kabi sifatlarga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatishning ob'ektiv vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga oid pedagogik ishlarni ikki yo'nalishda olib borish lozim:

- 1) badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'ekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan;
- 2) ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning (5-7 yosh) adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularda qahramonlarga qaygurish va hamdard bo'lish; voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish; qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni ko'rish va tushunish qobiliyatlari paydo bo'ladi. Shu sababli bu yoshda bolalarni mustaqil ravishda kitobni tomosha qilish, suratlar asosida qayta so'zlab berishga o'rgatish zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. –T.: «O‘zbekiston», 2017 y. - 47-b.
2. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. “Namangan haqiqati” gazetasi, 2017 yil 14 yanvar, № 4 (19313).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni
4. Ibrohimova.Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. T.,O‘qituvchi. 2008 yil.
5. Rajabova I. Bolangizni kitobxon qilishning eng oson usuli. //“Oila davrasida” gazetasi. 2017 yil 19 yanvar №3-son 8-bet.

